



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarix fani o'qituvchisi*

_____ning
*20__-20__-o'quv yilida 7-sinflar uchun
I chorak O'zbekiston tarixi fanidan*

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili 7-sinf O‘zbekiston tarixi fanidan I chorak
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Ajdodlarimizning ma’naviy qadriyatlari – jahon sivilizatsiyasi asoslaridan biri	1		
2.	IV-VII asrlarda mamlakatimiz xalqlarining turmush tarzi	1		
3.	IV-VII asrlarda Xorazm	1		
4.	IV-VII asrlarda Xorazm	1		
5.	IV-VII asrlarda xioniylar va kidariylar	1		
6.	IV-VII asrlarda xioniylar va kidariylar	1		
7.	Eftaliylar	1		
8.	Eftaliylar	1		
9.	Turk xoqonligi	1		
10.	Turk xoqonligi	1		
11.	Takrorlash	1		
12.	1-Nazorat ishi	1		
13.	G‘arbiy Turk xoqonligi	1		
14.	G‘arbiy Turk xoqonligi	1		
15.	Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi	1		
16.	Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi	1		
17.	2-Nazorat ishi	1		
18.	Turon xalqlarining harbiy san’ati	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Ajdodlarimizning ma'naviy qadriyatlar – jahon sivilizatsiyasi asoslaridan biri

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildirga olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatleri hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarning mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audiovideo yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; o'z xatti-harakatini adekvat baholash:

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.


Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa


III. Yangi mavzu bayoni:



Tariximizni o'rganar ekanmiz, qalbimizni faxr va iftixor tuyg'usi chulg'ab olaveradi. Ajdodlarimizning boy ilmiy va madaniy merosi bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo olimlarining ham diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda.

Qadimgi Turon hududlarida azaldan o'zbek, tojik, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq va turkmanlarning ajdodlari yashab kelishgan. Shu boisdan, o'zbek xalqining o'tmishi etnik jihatdan yaqin bo'lgan qardosh xalqlarning tarixi bilan chambarchas bog'lanib, uyg'unlashib ketgan. Siz ushbu darslikda IV asrdan XIII asr boshlarigacha bo'lgan Vatanimizning o'rta asrlar tarixi bilan tanishasiz. Bunda «o'zbiy» va «o'zbek» atamalari bilan ulug'langan o'zbek xalqi shakllanganligi haqidagi ma'lumotlar ham o'rin olgan. Darslikdan dunyo tamadduniga o'zining benazir hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimiz, vatanparvarlik namunasi bo'lgan bahodirlar jasoratlari bilan bir qatorda, xalqimizning boy madaniy merosi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

«Oʻrta asrlar» tushunchasi tarix faniga italyan tarixchilari tomonidan olib kiritilgan. Bu tushuncha xususiy mulkchilik shakli oʻzgarishi davrlari bilan bevosita bogʻliq. Sharq mamlakatlarida yer-mulk munosabatlari azaldan jamoaviy asoslarda rivojlanib kelgan. Shu sababli «oʻrta asrlar» tushunchasi tariximizda shartli ravishda ishlatib kelinadi. Aslida oʻrta asrlarning Yevropa uchun amal qiluvchi davriy chegaralari Sharq, xususan, Turon tarixidagi davr bilan farqlanadi. Chunki Yevropada oʻrta asrlarning boshlanishi Rim imperiyasining qulashi (476-y.), V asr oxirlari voqealariga toʻgʻri keladi.



Bizning tariximizda esa, «oʻrta asrlar» deb atalayotgan davr IV asr oxirlari hamda V asr oʻrtalaridan siyosiy maydonda *kidariylar, xioniylar, eftaliylar* kabi etnik atamalar ostida tushuniladigan qabila uyushmalari paydo boʻlgan davrdan boshlangan. Oʻrta asrlar, oʻz navbatida, ilk, rivojlangan va soʻnggi oʻrta asrlarga boʻlinadi. Mazkur davrda *Xorazm, xioniylar, kidariylar, eftaliylar, Turk xoqonligi, keyinchalik somoniylar, qoraxoniylar, xo razm shohlar, Amir Temur va temuriylar* hukmronlik qilgan yirik davlatlar mavjud boʻlgan. Bu davlatlar aholisining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy hayoti oʻz davriga xos ravishda rivojlanib borgan. Ilk oʻrta asrlarda «qishloq hokimlari» deb atalgan katta yer egalari – *dehqonlar* va ularning ekin zorlarida ishlovchi yersiz *kadivarlar* shakl landi. Yerda ishlash tartiblarining tubdan oʻzgarishi aholi oʻrtasida tabaqalanishni yanada keskinlashtirgan. VIII asr boshlariga kelib mamlakatimiz hududida arab xalifaligi hukmronligi oʻrnatildi hamda oʻlkamiz madaniyatiga islom dinining taʼsiri

kuchaydi. Xalifalik hukmronligidan keyingi asrlarda ilmiy maʼrifatning rivoji uchun sharoit yuzaga keldi.

Oʻrganganimizdan xulosa chiqaramiz

1. Eslab koʻring, qadimgi davrda Oʻzbekiston hududida qanday davlatlar boʻlgan?
2. IV–XIII asr boshlarida Vatanimiz tarixining oʻziga xos xususiyatlari nimadan iborat boʻlgan?
3. IX–XII asrlarda yurtimizda yetishib chiqqan buyuk muvaffaqiyatlar va mashhur ulamlarning qaysi asarlarini bila siz?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:


1. Quyi sinflarda tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, berilgan rasmlarni nomlang.

2. Rasmlarda aks etgan tarixiy voqealarni gapirib bering. Ular qayerda va qachon sodir boʻlganligini davr chizigʻi bilan tushuntiring.

3. Voqealar davr chizigʻining qaysi joyida toʻxtadi?

V. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: Toʻmarisning Kurush ustidan gʻalaba qozonganiga qancha yil boʻldi? Hisoblab koʻring.



OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: IV-VII asrlarda mamlakatimiz xalqlarining turmush tarzi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga tarixiy voqealar haqida katta hajmdagi ma'lumotlarni berish, ularni tahlil qila olish, voqealarning sabablarini tushuntira olish, tarixiy manbalari bilan ishlash, tarixiy makon va zamon o'rtasidagi bog'liqlikni anglash kabi qobiliyatlarni shakllantirish..

Tarbiyaviy: tarixiy u yoki bu voqeaning kelib chiqish sabablari, insoniyat, jamiyat rivojiga ta'sirini tushuntira olish va o'zining mustaqil munosabatini bildirga olish, tarixdan to'g'ri saboq chiqarish ko'nikmalari shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish, milliy qadriyatlarining mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati haqida tushuncha berish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlash olish;

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

orasta kiyinish, yurish turishda madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; o'zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o'zgalarning dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqli
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

III. Yangi mavzu bayoni:

Vatanimiz boy qadimiy tarixga ega. Turon, Turkiston, Movarounnahr nomlari bilan shuhrat topgan hudud tarixi va o'z mehnati bilan uni obod etgan xalqlarning o'tmishi g'oyat qiziqarli hamda ibratlidir. Suv tegirmoni, chig'ir va charxpalak kabi suv inshootlari kashf etilishi qishloq xo'jalik ishlarining rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Shaharlar hunarmand chilik, savdo-sotiq va ma'daniy hayotning mar'kaziga aylandi.

Dehqon (qishloq hokimi) – ilk o'rta asrlarda mulkdor tabaqa.

Kashovarz – ziroatchi oddiy qo'shchilar.

Kadivar – qishloqning dehqonlarga qaram aholisi.

Chokar – dehqon mulkini qo'riqlovchi, harbiy posbon.

VI asrda unumdor yerlar hamda suv taqsimoti qabila boshliqlari va ishboshilarning nazoratiga o'tdi. Bu esa, ularning qishloq aholisiga o'z ta'sirlarini o'tkazish, ziroatchi aholiga hukmronlik qilish imkoniyatini berdi. Ular qishloq hokimi — *dehqonlar* deb atal gan. Qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi *kashovarlar*, o'z yerlaridan va erklaridan ayrilib qolib, dehqonlarning yerlarida ishlovchi *kadivarlar* paydo bo'ldi. Dehqonlarning xo'jaligini tashqi hujumlardan himoya qilish, ichkarida esa tartib-intizomni saqlashga yordam beradigan maxsus askariy guruhi — *chokarlari* bo'lgan. Dehqonlarning shaharda hunarmandchilik rastalari, uylari bo'lgan. Ularning xo'jaligida ko'plab odamlar mehnat qilganlar. Turon hududida ham katta yer egaligi vujudga keldi.



So'nggi antik davr (milodiy II-IV asrlar)dan boshlangan tub o'zgarishlar shu qadar tez kechdiki, oqibatda, bir tomondan, O'rta Osiyoning dehqonchilik viloyatlarida (Sug'diyona, Marg'iyona, Toxariston, Xorazm, Choch, Farg'ona va boshqalar) o'nlab mahalliy hokimliklar tashkil topib, ikkinchi tomondan, ularning yiriklashish jarayoni ham jadal kechdi.

Ahmadali Asqarov, «O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi» qaram iz

1. Qanday omillar sabab dehqon xo'jaliklari paydo bo'ldi?
2. Agar suv tegirmoni va chig'ir ixtiro qilinmaganida odamlarning turli tabaqalarga bo'linishi yuz berarmidi? Fikringizni asoslang.
3. O'ylab ko'ring-chi, nega ziroatkor vohalardagi sug'orma yerlarning asosiy qismi qishloq jamoalarining qaramog'ida bo'lgan?
4. Insonlar hayotidagi bu o'zgarishlar yana qanday kasblarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan, deb o'ylaysiz?

Fikr bildirishdan avval chokarlar, kadivarlar uchun zarur bo'lgan buyumlarni ko'z oldingizga keltiring. savol va topshir

1. Qadimgi davrda O'zbekiston hududida qanday davlatlar bo'lgan? Ularning hududini xaritadan ko'rsating.
2. Mamlakatimizning eng qadimgi

davriga oid madaniy merosiga misollar keltiring.

3. Berilgan rasmlarga diqqat qiling. Ularning nomini bilasizmi? Agar u ixtiro qilinmaganida... Fikrni davom ettiring.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Hunarmandchilik, savdo-sotiq va qishloq xo'jalik ishlarining rivojlanishi insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Ekin maydonlarining kengayishi qanday ehtiyojlarga sabab bo'lishi mumkin? Quyidagi so'zlardan foydalanib fikringizni bayon qiling. Ziroatkor — hosil yetishtiruvchi, qo'shchi; mirob; yerga ishlov berishga mo'ljallangan mehnat qurollari va b.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Siz insonlar hayotining farovonligi uchun nima ixtiro qilgan bo'ladingiz? Fikringizni asoslang.



O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

42 listdan iborat O‘zbekiston tarixi fanidan 7-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**